

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 4

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 882 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-aprelda ruxsat etildi.

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Organizational Behavior and Leadership.....	10
Ibrokhim Gulomov	
Baliqchilikda klasterlarini tashkil etishning nazariy asoslari	18
Olim Murtazayev, Muydinov Olim Bekmurotovich	
Оценка состояния привлечения инвестиций в сферу туризма Узбекистана и механизмы управления	24
Арзиматов Бобирмирзо Зокирджон угли	
Biologik aktivlar buxgalteriya hisobni milliy va xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish masalalari ...	27
Axmadaliyeva Zebo Abdusalimovna	
Aholi yashash joylarida yong'in risklarini bartaraf etish xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari	32
Aziz Zikriyoev	
O'zbekistonda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi va vazifalari.....	40
Beknaeva Shaxnoza Vladimirovna	
Mintaqaviy turizmning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri (O'zbekiston turistik xizmatlar bozori misolida).....	45
D. B. O'roqova	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari.....	50
Ibrohimov Boburmirzo Baxtiyor o'g'li, Sayfiddinov Sarvarbek Anvarbek o'g'li	
Sanoat korxonalarining aksiyalar bozorida faoliyati tahlili: muammolar va yechimlar	55
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
Qurilishda modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish	63
Islamov Ozodjon	
Sanoat korxonalarini innovatsion salohiyatini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	67
J. K. Boymurodov	
Mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari	72
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
BlokchEYn texnologiyalari yordamida raqamli iqtisodiyotni o'zgartirish	77
Karabayev Rustam Zafarovich, Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi	84
Layli Mirzayeva	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda investitsion resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....	88
Luiza Komilovna Xaydarova	
Umumta'lim muassasalari sonining ekonometrik tahlilini pedagogik metodlar yordamida amalga oshirish....	93
Ravshanova Muhayyo Maxmanazarovna	
O'zbekiston tarixiy shaharlarida turistik faoliyati shakllanishi va ularni boshqarishning nazariy asoslari.....	98
Meliqulov G'ayrat Abdug'afforovich	
Iqtisodiy rivojlanish va ilmiy tadqiqot rivojlanishining havo ifloslanish darajasiga ta'siri	105
Murodullayev Kamoliddin Sherzod o'g'li, Sadibekova Bibisora Djapparovna, Turdiqulov Farrux Ravshanjon o'g'li	
Hududlarni rivojlantirish va "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishning ekologik muammolari.....	110
Maxkamov Saidafzal Saidkamol o'g'li, Yigitaliyeva Dilnavo Mansurjon qizi	
Ekoturizm obyektining tasniflanishi va alohida xususiyatlari	116
Qodirov Azizjon Anvarovich	
Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida sifat menejmentidan foydalanishning konseptual asoslari	121
Saidqulova Furuza Farmonovna	
Bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetensiyalari.....	125
Shukurova Marifat Xodjiakbar qizi	
Ta'limning bosqichlari va ularning inson kapitalini shakllantirishdagi ahamiyati	129
To'rayeva Hurriyat To'yqulovna	



Hududlarda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini amalga oshirishda marketingni rivojlantirish yo'llari	136
Xamidov O. X., Tojiyeva A. F.	
Investitsiyalar marketingining strategik aspektlari.....	143
Xodjamberdiyeva Dilnoza Bahtiyorovna	
Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda investitsion muhit jozibadorligini oshirishga nazariy qarashlar	149
A. Bektemirov, A. A. Abdurahmonov	
Qishloq xo'jaligi raqobatbardoshligini oshirishning ilg'or xorij tajribasi.....	154
Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Ochilov Narzullo Fayzulloyevich	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari.....	159
Yodgorova Xalima To'liqinovna	
Turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat va xususiy sherikchilikning o'zaro bog'liqligi tahlili.....	165
Raxmatov Adxam Itolmasovich	
Mamlakatimizda turizm tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida marketing instrumentlari orqali samarali tizim yaratish.....	169
Suyunova Kamilla Baxromovna	
Qishloq xo'jaligida agrokimyo xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	173
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
Yashil iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish muammolari.....	178
Xomitov K. Z., Masharipova S. R.	
Considerations on the Problem of Illegal Migration and Human Trafficking	183
Azamatova Gulmira Bayirbekovna, Otarbayeva Guljan Kobeyevna	
Sustainable Development and Environmental Economics in Uzbekistan: A Focus on Carbon Pricing and Renewable Energy	186
Muhammadiyev Po'latjon Ilhomjon o'g'li, Urganbayeva Dilnoza Toxtasinovna	
The use of Digital Technologies in the Provision Of Utilities to the Population	192
Mamanazarov Oybek Shomurodovich, Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
The Current State of the Digital Economy in the Agrarian Sphere: Problems and Solutions	196
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Behavioral Theory of the Firm.....	201
Egamberdieva Oydin Abror qizi	
The Role of Information Technologies in Increasing the Capitalization of Commercial Banks	207
Egamova Makhfurat Esanovna	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан	211
Абдуллоев Фуркат Олимджонович	
Совершенствование методологии экспертизы инвестиционных проектов	216
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
Методические подходы к формированию механизмов стратегического управления развитием химической отрасли.....	223
Бибутова Шахло Саъдуллаевна	
Меры по снижению доли теневой экономики в стране.....	228
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи, Сафаров Гиёсиддин Абдуллаевич ўгли	
Формирование национальной инновационной системы – одна из приоритетных задач повышения конкурентоспособности Республики Узбекистан	232
Н. М. Махмудов, А. А. Алиев, З. А. Мирзоев	
Мониторинг и анализ современного состояния и развития промышленности в Узбекистане.....	237
Назарова Раъно Рустамовна, Исмоилова Малика Дилшодовна	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов.....	243
Раупов Жамшид Рашидович	
Роль применения ключевых показателей эффективности труда на предприятиях.....	249
Рахматуллаева Шахноза Хамидовна	



Влияние цифровой трансформации на инвестиционную привлекательность Узбекистана.....	255
Саиткамоллов Муҳаммадхожа Сабирходжа угли, Маркабаева Жансая Айбек кызы	
Организация и координация методической помощи при управлении педагогическими кадрами	261
Хакимова Майя Юрьевна	
Интеграция узбекистана в мировое экономическое содружество путем унификации бухгалтерского учета на основе МСФО	266
Зарипова Саёхат Зафаровна	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	271
Abduqodirova Ozoda Anvarjon qizi	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning joriy tahlili.....	276
Abdusalomov Jaxongir O'ktam o'g'li	
Globalashuv sharoitida mamlakatimizda sug'urta bozorini raqamlashtirishning ahamiyati	282
Anvarova Z.	
The Role of Parents and Teachers in Promoting a Healthy Lifestyle in Children.....	286
Axtamov Djamshed Baxromovich	
A Study of the Importance of Green Economy in Uzbekistan Sustainable Economic Development and its Measurement Indicators in Relation to Environment.....	291
Ataniyazova Maksuda Baltayevna, Tairova Zarnigor Mammot qizi	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	296
Avazov Iloxom Ravshanovich	
Foydani soliqqa tortish obyekti sifatidagi iqtisodiy tarkibi.....	301
Axrorov Zarif Oripovich	
Surxondaryo viloyatida aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasini tahlili.....	309
Ibragimov Qobil To'xtamishovich	
Review of Methodological Approaches to Enterprises Financial Condition Analysis.....	314
Ismailova Maxbuba Mirxalilovna	
Innovatsion rivojlanish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tasniflanishining nazariy va ilmiy asoslari.....	319
Masharipova Manzura Alimbayevna	
Korxonalarda benchmarking strategiyalarini qo'llashning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari.....	325
Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna	
Davlat budjetining soliqsiz daromadlari shakllanishini takomillashtirish yo'llari.....	330
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi korxonalarining rivojlanish holati tahlili.....	334
Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar talablari asosida tuzish.....	339
Pardayeva Zulfizar Alimovna	
Raqamlashtirish sharoitida qo'shma korxonasi faoliyatining tahlili.....	343
Rashidov Jamshid Xamidovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	348
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Saloxiddinov Zuxriddin Nuriddin o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishning ilmiy asoslari.....	352
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya sohasini rivojlantirish ilmiy asoslari.....	356
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy masalalari.....	360
Turg'unov Saloxiddin Jamol o'g'li, Mirzayeva Mohidil Vohidovna	
Zamonaviy sharoitlarda korxonalarining moliyaviy baqarorligini yaxshilash masalalari	366
Usmanova Guljahon Ulug'bek qizi	
Franshizalarni jalb qilishda davlat boshqaruvi tizimida marketing tadqiqotlarining ahamiyati	371
Xodjayev Anvar Rasulovich	



Transport Decarbonization Strategy.....	377
Yarashova Vasila Kamalovna, Muradov Bekzod Xidirnazar ugli	
Temir yo'l transportida ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish	382
Yermatova Dilnoza Axmadjonovna	
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	387
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi va sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimi.....	390
Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev	
Issiqlik ta'minoti xizmatlari sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularni baholash	394
Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev	
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq solishni takomillashtirish.....	399
Abdullayev Zafarjon Alijonovich, Zaydullayev Abduhabib Boliqul o'g'li	
Sug'urta tashkilotlarida hisob siyosatini ishlab chiqishning ahamiyati.....	404
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Bank risklarini boshqarishning xalqaro tajribalari.....	409
Abdurasulov Jaxongir Abduvaliyevich	
Tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy ma'sulligini ta'minlash mexanizmining amal qilish darajasi.....	416
Bayisbayev Javlon Nurlanovich	
Qishloq aholisining qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash (Samarqand viloyati misolida).....	421
Bozorova Lobar Nuralevna	
Направления совершенствования инновационных стратегий в деятельности промышленных предприятий.....	427
Дониерова Зухрабону Алишер кизи	
Mol-mulk solig'ining korxonalar faoliyatiga ta'siri.....	432
Qudiyarov Kishibay Ramatullayevich	
Banklar reytingini aniqlash va barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.....	438
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining aktiv va passiv operatsiyalarini innovatsion usullar orqali boshqarishni takomillashtirish	442
Mo'minova Ma'suda Baxtiyarovna	
Auditorlik tekshiruvini dasturiy ta'minot asosida tashkil etish: muammo va yechimlar.....	447
Nazarova Kamola Sattoral qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishning davlat tomonidan tartibga solish konsepsiyasi.....	453
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati hamda uni rivojlantirish istiqbollari.....	460
Nurullayeva Shaxnoza, Saydullayeva Saodat	
Tijorat banklari inson kapitali samaradorligini baholashda KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish mexanizmlari	467
Turaeva Mastura Kurbanovna	
Сущность и особенности инвестиционно-строительного процесса	471
А. Бектемиров, Б.М.Абдувалиев	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	478
Saidov Hayotjon Raxmatulloevich	
Tijorat banklarida kredit operatsiyalari hisobini takomillashtirish.....	482
Sa'dullayeva Asalxon Muzaffarovna	
Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining raqobatbardoshlikni baholash usullari	485
Abdulloyev Asliddin Junaydullayevich, Teshayev Mirolim Djumayevich	
Tadbirkorlik subyektlarida soliq yukini optimallashtirish mexanizmi	490
To'xsanov Quدراتillo Nozimovich	



Davlat sektorida ichki audit tadbirlarini umumiy rejalashtirish	495
Xamidova Z. U.	
Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish va uning ahamiyati.....	501
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
Kambag'allikni qisqartirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	505
Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi va ichki auditni takomillashtirish	511
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta xizmatlari.....	516
Shodmonova Odina G'ofur qizi	
Fuqarolar davlat pensiya ta'minoti tizimining amaldagi holati tahlili.....	520
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Aholiga bank xizmatlari ko'rsatishning ijtimoiy ahamiyati.....	525
Eldor Uskanov	
Innovatsion boshqaruvning ilg'or xorijiy tajribalari	530
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
Neft-gaz korxonalarini moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari tahlili ("O'ZBEKNEFTGAZ" AJ misolida)	534
Umurzoqov Jamoliddin Sherbekovich	
Korxonalarda savdo marketing faoliyati samaradorligini baholash.....	541
Sobirov Azizbek Avzbekovich	
Moliyaviy firibgarliklarga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari.....	548
Gadaev Ismat Yadgarovich	
Hududlarda islom iqtisodiyoti tamoyillari asosida amalga oshirilgan investitsion loyihalar: to'siqlar va yechimlar	551
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna	
O'zbekistonda investitsiyalardan samarali foydalanish asosida oziq-ovqat sanoati samaradorligini oshirish yo'llari.....	554
Kobilova Nasiba Xurramovna	
Foreign Economic Relations as a Factor of Effective Functioning of the Economy	561
Bakhodurova Sulkhya Azizkhodjaevna, Li Marina Rudolfovna, Mukhtarova Donata Ravshanbekovna, Romashkin Roman Anatolyevich	
Modern Approaches to the Organization and Development of the Consumer Services Market.....	566
Musyeva Shoira Azimovna	
Ishlab chiqarish siklini qisqartirishning iqtisodiy samaradorligi.....	570
Odina Nabiyevna Tuychiyeva, Nazarova Latofat Toirjon qizi	
Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing strategiyasini amalga oshirish.....	575
Rashidova Xadicha Tursunalievna	
Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank faoliyatini iqtisodiy-matematik modellashtirish yo'llari	581
Raxmanov Mexridin Sindarovich	
Korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha hisobot tuzish bo'yicha xorijiy tajriba.....	586
Tashmatov Rustam Xusanovich	
Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari	592
Yuldashev Xusniddin Abdullayevich	
Iqtisodiyotda turizm o'rnini statistik baholash uslubiyoti.....	595
Zilola Jumanova	
Финансовые риски в исламском финансировании для внедрения в Республики Узбекистан	602
Абдуллоев Фуркат Олимджонович	
Блокчейн-технология и информационная безопасность в цифровой экономике Узбекистана.....	607
Кадиров Алишер Исмаилович	
Цифровая платформа как инструмент трансформации бизнес-процессов	611
Раупов Жамшид Рашидович	



O'zbekistonda zamonaviy kabel va sim mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatiga nazar.....	617
Rashidova Odina Olimjon qizi	
Современные тенденции развития валютных отношений в Узбекистане	622
Камалов Камолалдин Кахрамонович	
Sug'urta sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni	626
Sharobiddinov Akramjon Goyibbayevich	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish yo'nalishlari	630
Fayziyeva Aziza Azamat qizi	
Modeling the Stackelberg strategy in a linear model (linear city) Hotteling.....	635
Musayeva Shaira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
Mulkning kapitallashuvi darajasini iqtisodiy jihatdan amalga oshirish samaradorligini baholash uslublari.....	644
Norboyev Odil Abrayevich	
Tijorat banklarining kredit portfelini amaliy holati va ekonometrik tahlillari: ATB "Aloqabank" misolida.....	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyeвна	
O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" muhitida kreditlash va moliyalashtirish imkoniyatlari	654
Taxir Urkinbayev	
Budjet tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil qilishning xususiyatlari.....	658
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
Chinese Commercial Banks Experience in Asset Diversification	663
Uktamova Nozima Narzulla kizi	
Sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish istiqbollari.....	667
Yadgarov Akram Akbarovich	
Анализ деятельности коммерческих банков Узбекистана по кредитованию физических лиц.....	673
Базарова Нигора Равшановна	
Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning innovatsion jarayonlarga ta'sirini baholash.....	684
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari	689
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Tashqi mehnat migratsiyasi.....	694
O. N. Djurayev	
Raqamli iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini baholash	699
Otaboyeva Dildora	
Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	705
Raimov Xurshid Muxtorovich	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo'llash istiqbollari	711
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida tijorat banklari faoliyati: muammo va yechimlar	716
Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich, Jumaev Islombek Akram o'g'li	
Agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari	723
Boltayev Nurali Shiramatovich, Beglayev Uchqun Xurramovich, Abdiyev Izzat Risqiboyevich	
O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari	731
Davranov Iskandar Jumayevich	
Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish.....	738
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Role of Private and Public Kindergartens in Early Childhood Development	744
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
"Yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosi sifatida.....	749
Muminova Elnoraxon Abdukarimovna, Umarova Dilnoza Oybek qizi	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari	754
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	



Korxonada likvidlik riskini minimallashtirish orqali uning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish	759
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Развитие международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан	766
Ким Татьяна Валерьевна, Гофуржонова Шахрибону Бахромжон кизи	
Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari	774
A. Bektemirov, M. U. Sarimsoqov	
O'zbekiston mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish.....	780
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Bahromov Shahzod Fazliddinovich	
Роль имиджа в улучшении инвестиционной привлекательности высших учебных заведений.....	787
Жанзаков Бекзот, Жонузоков Мирзабек	
Innovatsion kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi va uni mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniyati.....	795
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Eshqulova Dilorom Abduravupovna	
Перспективы развития банковского сектора в Узбекистане для иностранных туристов	802
Муминов Шахзод Низомиддинович, Каримова Азиза Махомадризоевна	
Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantirishning konseptual asoslari	806
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda samarali foydalanish yo'llari	814
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Turistik xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va marketing tadqiqotlari.....	819
Berdiqulova Iroda Rayimqulovna	
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari	823
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....	832
Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.	
Kriptovalyuta va blokcheyn tadqiqotlari: tendensiyalar va istiqbollar	835
Berdiqulov Jurabek	
Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish	837
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko'p qavatli "yashil" fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati	843
Turdimuratova Aziza Alisherovna	
Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari va uni arima modeli asosida prognozlash.....	846
Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va undagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash.....	856
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati	863
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o'rni va ahamiyati	872
Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek	
Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации экономики	876
Алиева С.С.	



QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROKIMYO XIZMATLAR KO'RSATISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI



Tabayev Azamat Zaripbayevich

PhD, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jaligida agrokimyoy xizmatlari ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligining hozirgi holati yoritilgan, sohaga oid muammolarni vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish hamda agrokimyoy xizmati ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: agrokimyoy xizmatlar, samaradorlik, baho, fyuchers shartnomasi, raqobat, talab, taklif.

Abstract: The article highlights the current state of economic efficiency of agrochemical services in agriculture, gives the causes of problems associated with the industry and their elimination, as well as proposals for increasing the efficiency of agrochemical services.

Key words: agrochemical services, efficiency, price, futures contract, competition, demand, supply.

Аннотация: В статье освещено современное состояние экономической эффективности агрохимического обслуживания сельского хозяйства, даны причины возникновения проблем, связанных с отраслью, и их устранение, а также предложения по повышению эффективности агрохимического обслуживания.

Ключевые слова: агрохимические услуги, эффективность, цена, фьючерсный контракт, конкуренция, спрос, предложение.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim va yetakchi tarmoqlaridan biri bu qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash bilan birga eksportni oshirishdagi o'rnini juda yuqori.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida islohotlar olib borishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligi bilan birga uning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buni amalga oshirish uchun sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish, tejamkor va innovatsion texnologiyalarni keng jalb qilish bilan birga iqtisodiy munosabatlarni bozor mexanizmlari asosida to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, agrokimyoy korxonalarini xizmat ko'rsatishda, mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalarini yetkazib berishda tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlarini samarali ishlashini yo'lga qo'yishda qishloq xo'jaligi korxonalarini o'z imkoniyatlari doirasida sifatli agrokimyoy xizmat ko'rsatishni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi va ko'pincha tashkiliy jihatdan ichki imkoniyatlarining cheklanganligini inobatga olish lozim [2].

TADQIQOTNING MAQSADI

Tadqiqotning maqsadi qishloq xo'jaligida agrokimyoy xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot olib borish natijasida olingan ma'lumotlarga ishlov berish, mantiqiy mushohada, adabiyotlarni tanqid o'rganish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, modellashtirish, iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.



TADQIQOT MAVZUSINING DOLZARBLIGI

Agrokimyoviy xizmatlarni o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda istiqbolda xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoniga asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da sohaning ustuvor vazifalari asosli ravishda belgilab berildi. Mazkur dasturga asosan qishloq xo'jaligini boshqaruvi sohasida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish yuzasidan belgilangan vazifalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilma subyektlariga ham xosdir ^[1].

Lekin, bu vazifalar qishloq xo'jaligi bilan xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar doirasida ishlab chiqish o'z samarasini beradi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlar tarkibida mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar sarfining ulushini yuqoriligi bunga kengroq to'xtalishni talab qiladi. Bugungi kunda respublikamiz mineral o'g'itlar bozori konyukturasida quyidagicha muammolar mavjud:

- mineral o'g'itlar narxining doimiy emasligi va tez-tez o'zgarib turishi;
- mineral o'g'it ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi. ^[4]

FAO tashkilotining statistik ma'lumotlariga ko'ra 2000–2020 yillar mobaynida dunyo miqyosida qishloq xo'jaligida 1 gektar ekin maydonlari uchun foydalanilgan noorganik o'g'itlarning o'rtacha miqdori 43 foizga oshgan, ya'ni azot, fosfor va kaliyli o'g'itlar yig'indisi 129 kg ozuqaviy moddani tashkil etgan.

Agar mazkur ko'rsatkichni, O'zbekiston bo'yicha tahlil qilib ko'rganimizda, 2020-yilda dunyo bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan 1,8 marta yuqori ekanligi hamda 2000-yilga nisbatan esa 1,5 barobar ortganligi kuzatilgan. 2020-yilda, ushbu ozuqaviy moddalarning 162,5 kg/ga azotli o'g'itlar (70,4 foiz), 50,9 kg/ga fosforli o'g'itlar (22,1 foiz) va 17,3 kg/ga kaliyli o'g'itlar (7,5 foiz) hissasiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval: 1 ga ekin maydonida noorganik o'g'itlarning oziq moddalari sifatida foydalanish holati, kg/ga ^[20]

Hududlar	Azotli o'g'it		Fosforli o'g'it		Kaliyli o'g'it		Jami o'g'itlar	
	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.	2000-y.	2020-y.
Jahon bo'yicha	54,3	72,9	21,5	30,9	14,5	25,2	90,3	129,0
Afrika	11,0	16,3	4,1	6,5	2,1	3,7	17,2	26,4
Amerika	47,2	70,9	22,1	41,0	22,3	38,6	91,6	150,6
Osiyo	83,2	111,4	31,5	43,9	13,9	32,1	128,6	187,4
Yevropa	42,5	52,6	13,2	14,5	15,6	15,9	71,3	83,0
Okeaniya	38,4	42,9	45,0	29,8	9,4	9,5	92,9	82,1
O'zbekiston	125,7	162,5	24,1	50,9	1,7	17,3	151,5	230,7
Germaniya	153,7	106,7	29,2	16,2	45,3	37,6	228,2	160,5
Turkiya	52,3	88,7	23,8	33,0	3,1	5,0	79,2	126,6
Qozog'iston	1,0	2,5	0,2	3,0	0,1	0,1	1,2	5,6
Qirg'iziston	19,4	19,0	1,0	2,0	0,1	0,3	20,5	21,4
Tojikiston	10,1	68,4		7,0		2,7		78,0
Turkmaniston	52,3	88,7	23,8	33,0	3,1	5,0	79,2	126,6

2000–2020-yillar oralig'ida 1 gektar ekin maydonlari uchun o'g'itlardan foydalanish darajasining ortishi bilan ekinlar hosildorligi ko'rsatkichlari o'zgarishi o'rtasida nomutanosiblik kuzatiladi. Bu esa qishloq xo'jaligini mineral o'g'it va kimyoviy vositalar bilan ta'minlash yuzasidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi juda past daraja ekanligini ifodalaydi. Buni qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'rtasida ko'rsatilgan agrokimyoviy xizmatlarni baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarida ham kuzatish mumkin (2-jadval).



2-jadval: Sirdaryo viloyati fermer xo'jaliklari o'rtasida ko'rsatilgan agrokimyoviy xizmatlarni baholash maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari*

№	Berilgan savol mazmuni	Berilgan javob natijalari, %		
		Klaster	Davlat	Savdo firmasi va bozor
1	Mineral o'g'it va agrokimyo xizmatlari narxlari kim tomondan belgilanadi?	72	4,2	23,8
		Arzon	Qoniqarli	Qimmat
2	Mineral o'g'itni narxi sizga ma'qulmi?	0	3,2	96,8
		Past	O'rta	Yuqori
3	Mineral o'g'itni sifati sizga ma'qulmi?	3,7	89,4	2,6
4	Mineral o'g'itning samardorligi qanday?	4	76	20
		Ha	Yo'q	Bilmayman
5	Mineral o'g'it va kimyoviy vositalarining narxi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining mutanosibligi mavjud deb hisoblaysizmi?	8	84	8
6	Agrokimyoviy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlari to'g'ri shakllangan, adolatli deb hisoblaysizmi?	24	28	48

* Muallifning ilmiy tadqiqotlari asosida tuzilgan

So'rovnoma natijasida, "Mineral o'g'it narxi sizga ma'qulmi?" degan savolga 96,8 foizi qimmat deb baholagan. "Mineral o'g'it sifati sizga ma'qulmi?" degan savolga esa 89,4 foizi "o'rta" baho bergan. Demak, iste'molchilar tomonidan "o'rtacha" sifatdagi mahalliy mineral o'g'itlar "qimmat" bahoda yetkazib berilayotganligini ta'kidlashgan hamda ularning samaradorligini 76 foiz ishtirokchilar o'rtacha holatda deb baholagan.

Agrokimyoviy xizmatlar samardorligi mezonlari – bu yuqori sifatli agrokimyoviy mahsulotlar va xizmatlarning turli iste'molchilarining real ehtiyojlariga mos keladigan aniq va samarali natijalarga erishishga qaratilgan etalonlar tizimidir. Bugungi kunda davlat idoralari qishloq xo'jaligi agrokimyoviy xizmatlari tizimini bozor sharoitlariga moslashtirish jarayonida yuz berayotgan salbiy jarayonlarning passiv kuzatuvchilariga aylanmoqda. Bunday sharoitda asosiy qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi sifatida imtiyozli kreditlar fermer xo'jaliklariga yo'naltirilishi va undan erkin foydalanish huquqi berilishi yoki berilmasligi muhim ahamiyatga ega. Mineral o'g'itlar hamda kimyoviy vositalarini yetkazib berishda hududlar bo'yicha agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatishning turlicha shakli va tartiblari o'zaro munosabatlarni o'rnatishda salbiy ta'sir qilmoqda.

Ma'lumki, agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samardorligi qishloq xo'jaligi korxonalarining iqtisodiy samardorligi bilan bog'liq. Demak, agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samardorligini aniqlash hamda samardorlikka ta'sir etuvchi omillarni nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samardorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar sifatida o'g'itlarning hosil bilan qoplanuvchanlik ko'rsatkichini e'tirof etish mumkin. Mazkur ko'rsatkich o'g'it hisobiga olingan hosil bo'lib, asosiy ekin turi bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

$$H_o = (H * U_o) : 100 \quad (1)$$

bu yerda: H_o – o'g'it hisobiga qo'shimcha yetishtirilgan mahsulot hajmi, t; H – yalpi mahsulot hajmi, t; U_o – yalpi hosilda o'g'itni tutgan ulushi, foizda.

Mazkur ko'rsatkich har bir hudud, tuproq turlari, yerga o'g'it solishning past, o'rta, yuqori darajalari, asosiy ekin turlari (paxta, g'alla) yoki ekin turlarining guruhlari (meva, sabzavot, poliz) bo'yicha alohida hisoblanishi lozim. Buni aniqlash uchun quyidagilarni aniqlash lozim:

- sarflangan o'g'it me'yoringin ekin turi bo'yicha tavsiya etilgan me'yorga mos ekanligi;
- mineral o'g'itlar hajmining me'yorda belgilab berilgan mineral o'g'it hajmi o'rtasidagi o'zaro farq miqdori;
- o'zaro farqlariga qarab guruhlarga ajratib, me'yoriy o'zgarishlar intervaliga mos holda o'g'itlarning sarflanish me'yoridan kelib chiqqan holda ularning hosildorlikdagi ulushi aniqlanadi.



O'g'it hisobiga qo'shimcha yetishtirilgan mahsulotni mineral o'g'itlarning haqiqatdagi sarfiga bo'linganda o'g'itlarning qoplanuvchanligi hisoblanadi:

$$Q_{o'} = H_{o'} : O'_h \quad (1)$$

Bu yerda, $Q_{o'}$ – o'g'itlarning hosil bilan qoplanuvchanli ko'rsatkichi, O'_h – haqiqatdagi o'g'it sarfi.

Mazkur o'g'itlarning hosil bilan qoplanuvchanlik ko'rsatkichi agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatishga iqtisodiy jihatdan baho beradigan asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida o'g'itning hosildorlikdagi ulushini hisobga olishda oxirgi yillardagi hududlarning o'rtacha miqdoridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ekin hosildorligini oshirishda o'g'itning ta'siri mahsulot sifatini belgilovchi ko'rsatkichlarda ham o'z aksini topadi. Masalan, paxta xom ashyosining sorti yoki tolasining uzunligi, g'allaning oqligi va kleykovinalarini yuqoriligi hamda boshqa ekinlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishi bilan izohlash lozim. Agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatining samaradorligi miqdor hamda sifat ko'rsatkichlari tizimi orqali ifodalanadi va ularning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashda o'z aksini topadi. Aniq xulosa chiqarish uchun mazkur samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanilganda aniqlangan nisbiy ko'rsatkichlar emas, balki barcha ko'rsatkichlarni yagona ball tizimida baholashdan foydalanish zarur.

Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi qiymat, miqdor va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanaadi. Bu ko'rsatkichlar bevosita agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatuvchilar hamda ularning xizmatidan foydalanuvchi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga bog'liq.

Agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini qiymat ko'rsatkichlari narxlar bilan bog'liq barcha bajariladigan ish va xizmatlar qiymatini o'zida aks ettirib, quyidagilardan iborat bo'ladi:

Agrokimyoviy xizmatlarga bog'liq ko'rsatkichlar:

- asosiy ishlab chiqarish vositalari hisobiga bajarilgan ish va xizmatlar qiymati;
- bajarilgan ish va xizmatlar hisobiga asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati;
- boshqaruv xodimi va ishchi hisobiga bajarilgan ish va xizmatlar qiymati.

Agrokimyoviy xizmatlardan foydalanuvchilarga bog'liq ko'rsatkichlar:

- qo'shimcha yaratilgan mahsulot qiymati hisobiga qo'shimcha xarajatlarni qoplash;
- qo'shimcha sarflangan xarajatlar hisobiga yaratilgan qo'shimcha mahsulotlar qiymati;
- sarflangan mineral o'g'it hisobiga olingan shartli sof daromad;
- qishloq xo'jalik korxonasidagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi.

Miqdor ko'rsatkichlari agrokimyoviy xizmatlarni va xo'jalik shakllarini ma'lum bir hajmdagi bajariladigan ish va xizmatlar, sarflangan resurslar miqdori hamda ko'rsatilgan xizmat hisobiga olingan va saqlab qolingan hosilda ifodalaniladi. Qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishning mavjud tamoyillari va qonuniyatlarini har tomonlama nazariy jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, agrokimyoviy xizmatlarning iqtisodiy mexanizmi bevosita xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish orqali agrokimyoviy mahsulotlar va xizmatlar bozori subyektlarini mutanosib talab va taklifning muvozanatiga erishishni ta'minlashi kerak.

Buning uchun ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarning o'zaro agrokimyoviy xizmatlar bahosidagi ulushi aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda tomonlarning majburiyatlari va moddiy javobgarlik darajasini pirovard natija, ya'ni ekinlarning hosildorligiga bog'lash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, fyuchers shartnomalari asosida xizmat ko'rsatadigan agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini yaxshilash uchun ularga imtiyozli kredit ajratish hamda soliq to'lovida imtiyozlar berish ahamiyatlidir. Shunda, bozorda raqobatning ortishiga hamda mineral o'g'itlar va agrokimyoviy xizmatlari narxining tushushiga olib keladi.

TAKLIFLAR

Agrokimyoviy xizmatlar ko'rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sir qilishda iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish va agrokimyoviy xizmatlarning har bir ishtirokchisining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yakuniy maqsadlariga erishishga yo'naltirilganligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, umumiy iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi vositalar tizimi sifatida quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim deb hisoblaymiz:

- agrokimyoviy xizmatlari ishtirokchilarining xizmatlari bozorida barqaror mavqeyini hamda raqobatbardoshligini ta'minlash;

- agrokimyo xizmat ishtirokchilarida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishining yakuniy natijalariga qiziqishni shakllantirish;
- zimmasiga olgan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini rag'batlantirish;
- agrokimyo xizmatining har bir ishtirokchisining moddiy-texnik bazasi va mehnat resurslari takror ishlab chiqarishga mutanosib ravishda ta'minlashini qo'lab-quvvatlash.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoniga asosan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan Strategiyasi".
2. Umurzoqov O'.P. va boshqalar. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti, O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2008. 232-bet.
3. Jo'rayev T.J., Mamatov A.A. Fermer xo'jaliklari bilan "Agrokimyoximoya" hududiy aksiyadorlik jamiyati korxonalarida o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning tashkiliy-iqtisodiy va moliyaviy mexanizmi. // Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2018, 10 (118). 7-bet.
4. Mamatqulov B. Fermer xo'jaliklarida mineral o'g'itlardan, yer va suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirish yo'llari. // XI форум экономистов, Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Ташкент – 2019, 151-156-стр.
5. Mamatov M.A., Xurramov A.F. Qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2016.
6. T.Sh.Shog'iyosov "Kompleks iqtisodiy tahlil". Darslik, T.: "Fan va texnologiya", 2012-yil. 30-bet.
7. Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha 2016–2020-yillarga mo'ljallangan namunaviy texnologik kartalar. Toshkent, 2015. – 216 b.
8. D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov. "Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi". O'quv qo'llanma. –T.: "O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi" bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 257 b.
9. Niyazmetov D., Rudenko I. "KRASS" NNT Tomchilab sug'orish – O'zbekiston uchun zarur voqealik, Yer energiya bio-xilmaxillik. Axborot byulleteni №4. 01.12.2013 yil. 3-bet.
10. A.H.Berdiyev "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar", Iqtisodiyot va moliya jurnali, 2019, 11(131)-son, 29-34-betlar.
11. Berkinov B.B., Raxmonkulova B.O., Karimova X.X. Fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va rivojlanish jarayonlarini modellashtirish. – T.: "Iqtisodiyot", 2014. – 147 b.
12. R.A.Rashidov "Paxtachilikda resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish yo'llari", Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2020-yil. 76-84 betlar.
13. A.Tabaev "Перспективы развития агрохимслужбы в Узбекистане" Двадцать четвертые международные Плехановские чтения тезисы докладов. РЭУ им. Г.В.Плеханова 2 февраля 2011 г. Москва-2011. 339-400 стр.
14. A.Tabaev, B.Шодмонов, "Модернизация основных средств производства – как фактор конкурентоспособности предприятия", XXVIII международные Плехановские чтения. Российский экономический университет имени Г.В.Плеханова. Москва-2015. Стр.202-203.
15. A.Tabaev, G.Tojiddinova, Innovative development of the agrarian sector of Uzbekistan, Научно-теоритический практический журнал "Вестник Прикаспия". №2 (17), 2017. 16-20 стр.
16. Тошбоев А.Ж., Тошбоев А.А., Табаев А.З. Агрохимическое обслуживание в фермерских хозяйства, "Экономика и финансы" журнал 2007 й. №11 (136) октябрь (спецвыпуск), 58-59 стр.
17. A.Tabayev. Agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash yo'llari, Agro ilm jurnali, 4(16)-son, 2010-yil, 54–55-betlar.
18. Tabaev A. Ways of effective use of the material and technical base of agrochemical service enterprises, Journal Sustainable Agriculture scientific and technical, 2021. №2(10), -16-19 p.
19. Tabaev A. Encouragement ways of the introduction of innovative technologies in providing agrochemical services, 2023. №1(17), -41-43 p.
20. Source: FAO. 2022. FAOSTAT: Fertilizers indicators. In: FAO. Rome. Cited October 2022. <http://www.fao.org/faostat/en/#data/EF>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

